



## **ARAB TILIDA SO'ZLASHUV MAHORATINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USLUBLARI**

**A.N. Nusratullaev**

*O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi "Mumtoz sharq adabiyoti  
va manbashunosligi" kafedrası 1-bosqich tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola arab tilini o'rgangan va o'rganayotgan bosqichdagi ilm toliblari uchun arab tilida so'zlashish mahoratini shakllantirishning zamonaviy uslublari o'rganish va o'rgatishga bag'ishlangan. Maqolada tavsiya qilingan ko'rsatmalar arab tilini o'rganishda boshlang'ich bosqichdan yuqori pog'onadagi talabalarga tatbiq qilishga qo'l keladi. Undagi ko'rsatma va tavsiyalar, mazkur sohada ko'pgina yutuqlarga erishgan ustozlarning tavsiyalari asosida taqdim qilindi.

**Kalit so'zlar:** So'zlashuv mahorati, dialog, audio darslar, bayna yadayk, takallum.

**Abstract.** This article is dedicated to the study and teaching of modern methods of Arabic speaking skills for students who have studied and are studying Arabic. The guidelines recommended in the article are suitable for students from beginner to advanced levels of Arabic language learning. The instructions and recommendations in it were presented based on the recommendations of teachers who have achieved many successes in this field.

**Key words.** conversation skills, dialogue, audio lessons, bayna yadayk, tacallum.

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению и преподаванию современных методов освоения арабского языка студентами, изучавшими и изучающими арабский язык. Рекомендации, рекомендованные в статье, подходят для студентов от начального до продвинутого уровня изучения арабского языка. Указания и рекомендации в нем были представлены на основе рекомендаций учителей, добившихся многих успехов в этой области.

**Ключевые слова:** разговорные навыки, диалог, аудиоуроки, байна ядайк, такаллум.

Sir emaski, so'ngi yillarda yurtimizda arab tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish keskin ravishda ko'paydi. Shunga ko'ra, arab tilini o'rgatishda ham media vositalaridan ko'proq foydalanish davr talabi bo'lib qoldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Albatta, bu borada ko'pgina islohotlar amalga oshirildi. Ammo bu yetarli emas. Chunki, bu yurtning ajdodlari tarixda arab tili va unga bog'liq bo'lgan sohalarda dunyo miqyosida peshqadam bo'lgan va ustozlik qilgan. Ana shunday ajdodlarga munosib avlod bo'lish mas'uliyati o'laroq, qiladigan ishlarimiz juda ham ko'p. Xo'sh, bu borada bizda nima muammolar bor va uning yechimi qanday?

Arab tilini o‘rgangan yoki o‘rganayotganlarda uchrayotgan asosiy muammolardan biri, bu tilda erkin so‘zlasha olmaslik. Ha, so‘zlashish mahorati alohida mehnat va tajriba talab qiladigan ishlardandir. Kuzatuvlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, arab tilida erkin muloqot qila oladiganlarning aksariyati biror arab mamlakatida ma‘lum muddat (kamida bir yil) o‘qigan yoki ishlab kelganlardir. Xorijga chiqmagan arabshunoslar esa, biror arab bilan muloqot qilishga qiynaladilar. Ularning ko‘pchiligi har qanday mavzudagi arabcha matnni o‘qib tushuna oladi va hatto o‘zbek tiliga tarjima ham qila oladilar, ammo gaplashishga kelganda, tutilib qoladilar.

Ushbu muammoni yechimi o‘laroq, arab tilini o‘rgatish davrida tinglash (الاستماع) mashg‘ulotlarini davomli suratda o‘rgatib borish tavsiya qilinadi. Albatta bu mashg‘ulotlar bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi.

**Birinchi bosqichda** salom alik, hol ahvol so‘rash kabi sodda va qisqa mavzulardagi diologlarning audio shaklini eshittirish. Talabaga bu audio darslarni avval boshda kamida uch marotaba eshittiriladi va uning ma‘nosi so‘raladi. Ma‘nosini tushungandan keyin eshitganini qaytarish mashq qilinadi. Ya‘ni, har bir gapni eshitishi bilan uning arabchasini qaytaradi. Albatta, bu borada mavzularning turlicha bo‘lishiga ham e‘tibor qilish lozim. Masalan, “Salomlashish”, “Tanishuv”, “Do‘konda”, “Emakxonada” va hokazo. Shu kabi sodda mavzulardagi diologlarni eshitib tushuna olish va eshitganining arabchasini takrorlab bera olish mahorati shakllangach, keyingi bosqichga o‘tiladi.

**Ikkinchi bosqichda** esa yuqoridagi mavzular biroz murakkablashtiriladi. Bu bosqichda diologlardan tashqari talabaning o‘zi biror mavzuda gapirib berish mashg‘ulotlari ham qo‘shiladi. Masalan, “Avtobiografiya”, “Kun tartibim”, “Dam olish kuni” kabi mavzulardagi matnlarning audio shakli bir necha bor eshittiriladi va talaba ularni to‘liq tushuna olayotganiga ishonch hosil qilinadi. Bu kabi audio darslarni uy vazifasi sifatida bir necha bor tinglash (kamida 10 marta) va kelgusi darsda uni gapirib berish talab qilinadi. Gapirib berishdan oldin audio darsni bir marta eshittirish maqsadga muvofiq. Shu tarzda har bir bosqich bo‘yicha kamida o‘nta mavzu ustida mashg‘ulotlar olib boriladi. Bitta mavzu bir darsda o‘tilsa, ikkala bosqich kamida yigirmata darsni o‘z ichiga oladi. Ushbu ikki bosqichni muvaffaqiyatli yakunlagach keyingi bosqichga o‘tiladi.

**Uchinchi bosqichda** audio darslarni eshitish bilan birga arabcha matnlarni o‘qib gapirib berish mashg‘ulotlarini ham yo‘lga qo‘yish kerak. Bunda talabaning saviyasiga qarab biroz murakkabroq mavzulardagi matnlarni berish lozim. Toki, talabaning so‘zlashuv mahorati tor doirada cheklanib qolmasin. Shuningdek, bu bosqichda arabcha multfilm va kinolar ko‘rish ham juda qo‘l keladi. Boshlanishiga multfilmlar qulayroq, chunki, multfilmlarda mavzular soddaroq va so‘zlar osonroq bo‘ladi. Undan keyin biror foydali mavzulardagi kinolarni ko‘rish talabaning eshitish mahorati yuksalashiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Talaba ko‘rgan multfilm yoki kinoni arab tilida hikoya qilib berishi lozim. Bunda vaqtni chegarlash, ya‘ni muayyan daqiqadan kam bo‘lmaslik va falon daqiqadan oshib ham ketmaslik qoidasini o‘rnatish lozim. Ko‘piga ham chegara qo‘yish talabaning



o'z fikrini lo'nda shaklda ifodalab berish mahoratini ham tartibga solishga turtki bo'ladi. Albatta, bu borada befoyda yoki bema'ni multfilm va kinolardan ehtiyot bo'lish ham o'ta muhim.

Aytib o'tilgan bu mashg'ulotlarni amalga oshirish mobaynida talabalar o'zaro arabcha gaplashishni ham yo'lga qo'yishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda arabcha gaplashishni muayyan zamon va makonga xoslab qo'yish uslubi qo'l keladi. Ya'ni, kunning muayyan vaqtida (masalan, tushlikka chiqqanda, falon soatdan falon soatgacha) va muayyan joylarda (masalan, o'quv binosida, bekatda ulov kutib turganda) faqat arabcha gaplashishni kelishib olish. Bu uslub yotoq joyi bir bo'lgan talabalarga judayam qo'l keladi.

Albatta, bu mashg'ulotlarni joriy qilishda o'quv dargohida kerakli asbob uskunalar bilan ta'minlangan va darsliklarning video va audio shakllari mavjud bo'lishi shart. Bu borada arabshunoslar orasida keng tarqalgan "العربية بين يديك" (Al-arabiya bayna yadayk), "التكلم" (At-takallum) darsliklari tavsiya qilinadi.

So'zlashish mahoratini mazkur bosqichlarda o'rganish boshlang'ich bosqichdagi talabalarga emas, muayyan saviyaga ega bo'lgan, arabshunoslar ta'biri bilan aytganda "fe'l foilni ajrata oladigan" talabalarga joriy qilish mumkin.

Xulosa o'rnida aytib o'tish lozimki, har qanday inson o'z ona tilini eshitish orqali o'rganadi. Shunga ko'ra, so'zlashish mahoratini o'rganishni maqsad qilgan talaba tinglash mashg'ulotlari bilan qancha ko'p shug'ullansa, maqsadiga shuncha tez fursatda erishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdul Rahman Bin Ibrahim al Fawzan العربية بين يديك 2014 yil Misr, Qohira.
2. [www.arabic.uz](http://www.arabic.uz)
3. [www.for9a.com](http://www.for9a.com)
4. "An-Na'ym ul-Kabir" arabcha o'zbekcha lug'at Toshkent 2003.